Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

O‘ZBEKISTON MILLIY TO‘LOV TIZIMLARI VA ISHLASH PRINSIPLARI

TOSHQULOV HUSAN OTABEK O‘G‘LI
TDIU To‘rtko‘l fakulteti Soliq va soliqqa tortish yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Y.TURDIYEVA
TDIU To‘rtko‘l fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan milliy to‘lov tizimlari, ularning ahamiyati, iqtisodiyotdagi o‘rni, ularning shakillanish bosqichlari hamda ishlash mexanizmlari va prinsiplari o‘rganiladi va batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek milliy to‘lov tizimlarining xavfsizlik, tezkorlik, qulayliklari va ishonchlilik tamoyillari, ularning raqamli iqtisodiyot rivojiga ta’siri yoritilib beriladi.

Kalit so‘zlar: milliy to‘lov tizimi, naqd pulsiz hisob-kitob, raqamli iqtisodiyot, Uzcard, Humo, bank infratuzilmasi, P2P,NFC,QR-kod, asosiy to‘lov shakllari.

So‘ngi yillarda dunyo miqyosida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi moliya sohasida tub burilishlarni yuzaga keltirdi. Naqd puldan foydalanish asta-sekin kamayib, uning o‘rnini elektron va raqamli to‘lov vositalari egallab kelmoqda. Bu bir tomondan yaxshi va bir tomondan yomon. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda, balki molioyaviy operatsiyalarning tezkorligi va shaffofligini ham ta’minlanmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish orqali naqd pullarning bankdan tashqarida muomalada bo‘lishini qisqartirishga erishildi, masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish tizimlarining funksionali kengaytirildi. Olib borilgan ishlar natijasida aholining bank kartalari va boshqa naqd pulsiz hisob-kitob usullariga xavfsiz va qulay to‘lov vositasi sifatida bo‘lgan ishonchi oshdi. Shu bilan birga, erishilgan yutuqlarga qaramay, to‘lov tizimlarini rivojlantirish, uchun zamonaviy texnologik yechimlarni joriy qilish borasida qator kamchiliklar mavjuddir. Xususan, chakana to‘lovlarni qayta ishlash bo‘yicha davlat protsessing markazining mavjud emasligi milliy to‘lov tizimining xavfsizligi darajasini kamaytirmoqda, to‘lov infratuzilmasining yagona integrallashuviga erishish imkonini bermayapti hamda bir monopol tizimning mutloq ustun bo‘lishiga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu global jarayonlardan chetda qolinmay, milliy to‘lov tizimlarini mustaqillik yillarida jadal rivojlandi. 1990-yillarda Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi (Munis) joriy etildi,

Published: 05.06.2026
Cite this article: Toshqulov Husan Otabek o‘g‘li, Y. Turdiyeva (2026). O‘zbekiston milliy to‘lov tizimlari va ishlash prinsiplari. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/739
© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

keyinchalik “Humo” milliy tizimi va real vaqt rejimidagi kliring paydo bo‘ldi. Bugungi kunda naqd va naqdsiz ya’ni naqd bulmagan to‘lovlar, shu jumladan mobil to‘lovlar keng tarqalgan. Maqsad – tizimning ishlash prinsiplarini soddalashtirib tushuntirish va rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash. Aholining bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotganini, elektron savdo hajmining kengayishi va davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi milliy to‘lov tizimlarining ahamiyatini yanada oshirdi. Hozirgi kunga kelib odamlarning bankda navbat kutib o‘tirishlariga xojat yo‘q.

Milliy to‘lov tizimi – bu mamlakat hududida pul mablag‘larini o‘tkazish, to‘lovlarni amalga oshirish va hisob-kitoblarni yuritishga xizmat qiluvchi institutlar, texnologiyalar va huquqiy mexanizmlar majmuasidir. Ushbu tizimlar orqali jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida moliyaviy munosabatlar muvofiqlashtirildi. Milliy to‘lov tizimining asosiy komponentlati, xususan, Markaziy bank tizimi “Humo” kartasi va kliring mexanizmlari tahlil etiladi. Milliy to‘lov tizimlarining asosiy vazifasi iqtisodiyotda pul aylanishining uzliksizligini ta’minlashdir. Ular orqali to‘lovlar tez, aniq va xavfsiz amalga oshiriladi. Ayniqsa, ichki bozor barqarorligi va bank tizimiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashda ushbu tizimlarning roli beqiyosdir.

O‘zbekistonda milliy to‘lov tizimlari faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tartibga solinadi. Markaziy bank to‘lov tizimlarining barqaror ishlashini ta’minlash, ularni nazorat qilish va ularni rivojlantirish bo‘yicha asosiy vakolatli organ hisoblanadi. Markaziy bankning Banklararo to‘lov tizimi mamlakatimizning mustaqillikdan keyingi dastlabki to‘lov tizimi sifatida barcha to‘lov tizimlari ishlashi uchun poydevor hisoblanadi. Xozirgi kunda Markaziy bankning Banklararo to‘lov tizimida to‘lovlarni amalga oshirish maqsadida 31 ta tijorat banki to‘lov tizimi foydalanuvchilari sifatida ulangan.

Markaziy bankning Banklararo to‘lov tizimi quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi:

- O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risidagi”gi Qonuni (11.11.2019 y., O‘RQ-582);
- O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (01.11.2019 y., O‘RQ-580);
- O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonuni (05.11.2019 y., № O‘RQ-578);
- “Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali elektron to‘lovlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi (14.02.2006 y., № 1545);
- “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi Nizom (13.04.2020 y., № 3229).

Markaziy bankning hisob-kitob markazi (MB HKM) – uning vazifasiga tijorat banklarining bosh ofislariga (banklar) vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko‘rsatish hamda ular o‘rtasida elektron to‘lovlarning uzluksizligini ta’minlash kiradi.

Markaziy bankning axborotlashtirish bosh markazi (ABM) – amaldagi qonunchilik hamda ABM va banklar o‘rtasida shartnomalarga muvofiq banklararo to‘lov tizimining texnik, dasturiy va ekspluatatsion xizmatlarini ta’minlaydigan markaz.

Mustaqillikdan keyingi davrda O‘zbekistonda bank tizimi bosqichma-bosqich isloh qilindi. Dastlabki yillarda to‘lovlarning asosiy qismi naqd pul orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan plastik kartalar va elektron to‘lov tizimlari joriy etila boshlandi.

Milliy to‘lov tizimlarning joriy etilishi ichki moliya bozorini mustahkamlash, tashqi tizimlarga qaramlikni kamaytirish va milliy valyuta barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda quyidagi milliy to‘lov tizimlari keng qo‘llanilmoqda:

- Uzcard
- Humo

Uzcard to‘lov tizimi respublika hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun yaratilgan eng yirik milliy to‘lov tizimlaridan biridir. Ushbu tizim orqali aholi savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarida to‘lovlarni amalga oshiradi, bankomatlardan naqd pul yechadi va turli turdagi majburiy to‘lovlardi bajaradi.Uzcard tizimining keng tarqalishiga uning qulayligi, xavfsizligi va ishonchliligi sabab bo‘ldi. Tizim mamlakat bo‘ylab katta infratuzilmaga ega bo‘lib, aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi.

Humo to‘lov tizimi milliy to‘lov bozorida sog‘lom raqobatni shakllantirish maqsadida joriy etilgan. Ushbu tizim zamonaviy chipli texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, to‘lovlar xavfsizligini yuqori darajada ta’minlaydi.

Humo tizimi nafaqat to‘lovlarni amalga oshirish, balki moliyaviy xizmatlarni kengaytirish imkonini beradi. Ushbu tizim orqali aholiga qulay va tezkor bank xizmatlari taqdim etilmoqda.

Elektron to‘lov tashkilotlari (ilovalar va hamyonlar) - ushbu tizimlar internet orqali xizmatlar uchun to‘lov qilish va pul o‘tkazmalarini amalga oshirish imkonini beradi bular:

* Click (Click Up)
* Payme
* Uzum Pay
* Paynet
* Oson

Asosiy to‘lov shakllari:

* QR-kod
* NFC texnologiyasi (kontaktsiz to‘lovlar)
* P2P (Person-to-person)

Milliy to‘lov tizimlari quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanib faoliyat yuritadi:

1. Xavfsizlik – moliyaviy ma’lumotlarni himoyasi ustuvor hisoblanadi.
2. Tezkorlik – to‘lovlar real vaqt rejimida amalga oshiriladi.
3. Ishonchlilik – tizimlar uzluksiz ishlashi ta’minlanadi.
4. Qulaylik – foydalanuvchilar uchun sodda mexanizmlar yaratiladi.
5. Shaffoflik – barcha operatsiyalar qonunchilik asosida amalga oshiriladi.

Milliy to‘lov tizimlari iqtisodiy jarayonlarni tezlashtiradi, naqd pul aylanmasini qisqartiradi va soliq tushumlarining oshishiga yordam beradi va xizmat ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ushbu tizimlar korrupsiya xavfini kamaytirish va moliyaviy intizomni mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida milliy to‘lov tizimlari moliya tizimining barqaror ishlashini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Ularning izchil rivojlanishi naqd pulsiz iqtisodiyot shakllanishiga, aholi farovonligining oshishiga va mamlakat iqtisodiy salohiyatining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Milliy to‘lov tizimlarini yanada takomillashtirish O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sari dadil qadam tashlayotganini yaqqol ko‘rsatib kelmoqda.

Foydalanilgan manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me’yoriy hujjatlari
3. Milliy to‘lov tizimlariga oid tahliliy manbalar
4. O‘RQ-578-son. To‘lovlar va to‘lov tizimlarisida (2019)
5. PQ-3945-son. Milliy to‘lov tizimini rivojlantirish (2018)
6. CBU. To‘lov tizimi obzori (2025.CBU.uz)
7. Aminova R.F. “O‘zbekistonda elektron to‘lov tizimlari” (2022)